

*Kitobga sharx; kitobxonlarga o`qishni tavsiya qilamiz!*



Fransuz yozuvchisi 100 lab asarlarning muallifi asli kasbi advokat bo`lgan lekin adabiyotni tanlab biografik asaralar ijodkoriga aylangan, tarixiy shaxslar hayotiga qiziquvchi Marsel Brion va uning qalamiga mansub “Menkim, Sohibqiron- Jahongir Temur” asari haqida.

“Menkim, Sohibqiron- Jahongir Temur” asarni 1963 yili Parijda chop etiladi. Mazkur kitob Sohibqironning dunyoga kelishidan to vafotiga qadar bo`lgan davrni qamrab olib, voqealar Amir Temur nomidan hikoya qilinadi. Asarning yozilganiga bu yil roza-rosa 63 yil to`ldi. Bu asarni o`qir ekanmiz bobokalonimiz Sohibqiron Amir Temur bizga hech kimga aytmagan sirlarini ochayotganini hamda buyuk salohiyat sohibi bo`lganligini, tengsiz dovyurak sarkarda, o`z sarhadlarini belgilashda tutgan kuchli siyosatini yanada chuqurroq anglab yetamiz. Yoshligidan ilim va sportni birday olib ketganligi-yu Quranni yoddan bilganligi, eng og`ir vaziyatlarda Qurondan o`qib qaror chiqarganligi bizni yanada lol qoldiradi.


Umri davomida qacha yurish qilmasin, qaysi davlatga bormasin, ilim kishilarga, hunarmadlarga, imomlarga hech qachon zarar bermagan. Doimo davlat ishlarini kengash maslahati bilan bosqargani va farzandlariga, navbiralarga ham doimo ulamolar, ko`p tajribaga ega bo`lgan kishilar maslahatiga quloq solib qaror chiqarishni o`rgatib kelgan. O`tgan umrining 48 yilda sarkarda turli joylaridan 172 ta jaroxat oladi. Lekin bir bora oh degan inson emasman deydi. Amir Temur jang mobaynida hech bir davlat ishlatmagan porxni ishlatadi va shu sabab, ko`pgina qiyin vaziyatlardan chiqib ketadi, Porox tayyorlash sirlarini esa juda ham maxfiy saqlaydi. Bobomiz o`n olti yoshligini shunday esga oladi: O`n olti yoshimda men barcha ilmlarni o`zlashtirgandim. Roppa-rosa o`n oltiga to`lgan kunim otam meni ajdodlarimiz mozoriga olib bordi va qabristonga tutash masjid binosini ko`rsatib dedi: "Mana shu mozorda yotgan barcha ajdodlarimiz islomga e`tiqod qo`ygan kishilar bo`lishgan. Sen ham shu dinga qoyim bo`lgin va yodingda tut: Hech qachon islomdan chalg`ima, ulamolarga doimo hurmatda bo`l. Olimlar suhbatida bo`lib, din va dunyoviy masalalarda suhbatlashishni odat qil. Imkoning yetsa masjid va madrasalar qur, ularni jihozla — mulkingdan bir qismini, bisotingning bir ulushini ularga hadya qil!

O`sha kuni otamga so`z berdim. Shu so`zlarga butun umrim davomida amal qilib keldim, qaysi davlatga bormayin, olimlarga, shoirlarga, din vakillariga yomonlikni ravo ko`rmadim va ularni hurmatini joyiga qo`ydim

deydi. Asarni o`qish davomida voqealar rivoji sizni o`z ta`sirida qoldirib hayratga solaveradi.

Bu asarni bir ikki og`iz so`z bilan tasvirlab bo`lmaydi chunki bu asarda berilayotgan har bir voqeada asoslangan tarixning eng muhim jihatlari berilgan. Amir Temur nomidan aytilayotgan hikoyalarni tinglar ekansiz yana bir e`tiborli jihatga ya`ni har bir yangi joyga borganida o`sha joylarning muhitidan odamlaridan kelib chiqib yangi nom berib ketganligiga guvoh bo`lasiz. Ayniqsa u Basharuy degan joyga borganini shunday eslaydi; umrimni oxirigacha bu joyning oddiy odamlarini ulamolar darajasidagi ilm salohiyat sohiblari ekanligini tan olim va shaharga "Dor-ul-ulum va ul-omon" degan unvon berdim hamda mening davomchilarimni bu shaharga jangavor yurish qilmasliklarini belgilab qo`ydim deb aytadi. Chunku u yerdagi odamlarning dunyoqarashini hech qaysi joyning odamlariga tenglashtirib bo`lmaydigan darajada benuqsaon va go`zal edi. Bu meni hayratga soldi deydi. Janglarga kirishini shunday aytib beradi: Har bir janga kirar ekanman o'zim boshchilik qilib har bir askarini ismi bilan chaqirishini aytadi. Chunki o'zim ular bilan janga kirsam jangchilarimni ruxi ko'tarilari, ismini aytib chaqirsam har biri e'tiborda ekanligini bildiradi, deb juda go'zal fikirlarni ifodalagan. Bu asarni o'qir ekansiz, siz o'zingizni o'sha davrda yurganday his qilasiz va shunday bobokalonlarimizning farzandlari, vorislari ekanligimizdan ich-ichingizdan faxirlanasiz.

Mukammalligi bilan ajralib turadigan ushbu asarni audio variant ham bor bemalol yo`l yo`lakay tinglashingiz va Amir Temur bobomizning saltanatiga xayolan sayohat qilishingiz mumkin. Va shu o`rinda aynan Bizning tariximizni va buyuk Temur shaxsiga betakror ta`rif berib ushbu asarni yozgani uchun M.Brionga rahmat aytaman. Agar siz bu asarni o`qimoqchi bo`lsangiz marhamat bizning kutubxonamiz javonlaridan topishingiz mumkin.



**Tayyorladi axborot bibliografiya xizmati rahbari  
M.Raximova.**